


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil uchun Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 99 866,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,9 % ga yetdi.




2023-2024-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab
chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
I. YAHM, jami	83 149,5	99 866,1	106,9
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 760,3	98 296,2	106,8
mahsulotlarga sof soliqlar	1 389,2	1 569,9	107,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 760,3	98 296,2	106,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28 342,3	31 921,8	102,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17 823,6	22 179,3	108,8
sanoat	12 722,0	16 413,3	107,6
qurilish	5 101,6	5 766,0	111,7
xizmatlar	35 594,4	44 195,1	109,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11 959,2	15 069,7	114,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 417,8	7 068,7	117,8
boshqa xizmat tarmoqlari	18 217,4	22 056,7	103,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 23 481,3 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

2023-2024-yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming soʻmda)



2023-2024-yillarda aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning oʻsish surʼatlari
(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





**2023-2024-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

	2023-yil	2024-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,7	32,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21,8	22,6
sanoat	15,6	16,7
qurilish	6,2	5,9
xizmatlar	43,5	44,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,6	15,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,6	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	22,3	22,4

**2023-2024-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**


2024-yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,5 % ni, sanoat tarmog'i 16,7 % ni, qurilish 5,9 % ni va xizmatlar sohasi 44,9 % ni tashkil qildi.



2023-2024-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


2024-yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 107,6 % (16,7 %), qurilishda – 111,7 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 109,2 % ni (44,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,0 % (15,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,8 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (22,4 %) iborat bo'ldi.



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2023-yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023-yilda – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023-yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,0 f.p. (2023- yilda – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023-yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

**2024-yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**




2024-yilda YAHM deflyatori indeksi 2023-yildagi narxlarga nisbatan 112,4 foizni tashkil etdi.

YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 119,9 % va xizmatlarda – 113,7 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023-2024-yilda kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

2024-yil uchun kichik tadbirkorlik 71 019,1 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023-yilda – 59 100,2 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 72,3 % ni (2023-yilda – 72,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi.

